

BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING METODLARI.

DTPI Pedagogika va Psixologiya kafedrası

o'qituvchisi Turdiyeva Izzatoy Sadikovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim 1- bosqich talabasi

O'zbekova Mashhura Oybekovna .

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bolalar psixologiyasi fanining metodlari, turli yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanish qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlari o'rgatish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bolalar psixologiyasi, ma'naviy, Interfaol, metod, psixik, globallashuv,

Abstract: This article discusses the methods of child psychology, the laws of development of the psyche of children of different ages, and teaching different stages of development.

Keywords: Child psychology, spiritual, Interactive, method, psychic, globalization,

Аннотация: В статье рассматриваются методы детской психологии, закономерности развития психики детей разного возраста и особенности обучения на разных этапах развития.

Ключевые слова: детская психология, духовный, интерактивный, метод, психическое, глобализация,

Kirish. Bugungi yosh avlod, ertangi kun bunyodkorlari, millat kelajagi. Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning fikrlarini keltirishimiz joiz: "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi".

¹Jamiyatda ta'lim sohasining o'sishi, shuningdek, ta'lim mahsulotining o'z o'rniga ega bo'lishi va ta'lim jrayonlarining intensivlashuvi bilan bog'liq bo'lgan bilimlarning va ta'lim texnologiyalarining kengayishi bilan bog'liq. Oliy ta'limda ta'lim xizmatlarining sifati ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining tarkibiy qismlaridan biridir

Asosiy qism. Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, bolaning tug'ilganidan to yetuklik davrida psixik taraqqiyotini, turli yosh davrlaridagi bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, rivojlanishining turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlarini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ilganidan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongining qanday rivojlanishiga qaratilgan, ya'ni har bir shaxs uzoq bolalik davrini boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayonlar va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib o'rganiladi va uni ontogenetik taraqqiyot yo'li deyiladi. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari — bu bolalarning psixik rivojlanishini, xulq-atvorini, his-tuyg'ularini va tafakkurini o'rganish uchun qo'llaniladigan ilmiy usullardir. Bola psixikasini o'rganishning yanada samaral imetodlarini qidirish bolalar psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar xaqida aniqroq axborot olishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqishni anglatadi. Quyida atoqli psixolog B.G.Ananev tavsiya qilgan klassifikatsiyaga asoslanib, mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilgan. Quyidagi mazkur metodlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsiya berildi. Tadqiqot metodlarining birinchi – tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (o'zluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi.

Yosh davri psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi olamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'zaro xosligi kabilarni o'rganishda qo'llanadi. Psixologlardan L.S.Vigostkiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smironov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan

tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilkbolalik, kichikmaktabyoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Bolalar psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (o'zluksiz) metodi ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki birnecha sinaluvchilar o'zaro uzoq muddat, hatto, o'n yillab tekshirilishidir. ilmiy tadqiqotlarning ikkinchi gurux emperik metodlardan iborat bo'lib, bu guruhda kuzatish (o'zini o'zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so'rov, sotsiometriya, suhbat qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma, xujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Endi tajribada eng ko'p qo'llanidagan emperik metodlar haqida kengroq ma'lumot beramiz. A'anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar – kuzatish va eksperiment – bola taraqqiyoti xaqida ishonchli ma'lumot bera oladi. Kuzatish – psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlaridan biri bo'lib, psixik xodisalarni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir. Kuzatish – tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Kuzatish metodining asosiy kamchiligi shundaki, unda kuzatilayotgan xodisalarga faol ta'sir ko'rsatish, ularni o'zgartirish, kuzatish amalga oshirilgan vaziyatni xuddi shunday ko'rinishda qaytadan yaratib bo'lmaslik kabi xususiyatlar qayd etiladi. Shunga qaramay bu metod xaligacha asosiy psixologik metodlardan biri bo'lib kelmoqda. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirliги, xulq-atfori, nutq faoliyati va xakozolar o'rganiladi. Masalan, go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, his-tuyg'usi, talpinishi, mayli, hoxishi aniqlanadi. o'quvchining darsdagi xolatini kuzatishda esa diqqatning hususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyat

tug'iladi. o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilishi, o'zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ish mumkin.

Yordamchi metodlar - test, so'rov, faoliyat maxsullarini o'r o'rganish – tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

Bolalar psixologiyasining yordamchi metodlari

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasining o'rganishda suhbatning maqsad va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkur, qobiliyat va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod yosh davri psixologiyasida keng qo'llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, metodlar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali, badiiy va adabiiy qobiliyati, ijodiy hayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin.

Anketa metodi. Bolalar psixologiyasida keng qo'llanadigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi olimlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch xil o'tkaziladi. Ularning birinchi xili anglashishlar motivlarni anglash mo'ljallangan savollardan to'zilai. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zoalri o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanadi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan.

Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi.

Xulosa. Bolalar psixologiyasi — bu bolaning psixik rivojlanishi, xulqi, hissiyoti, tafakkuri va shaxs sifatida shakllanishini o'rganadigan muhim fan sohasi. Uning tadqiqot metodlari bola ruhiyatini chuqur anglash, individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Bola — o'ziga xos psixik olamga ega shaxsdir. Shuning uchun uni o'rganishda turli metodlarning uyg'un qo'llanilishi zarur. Masalan, kuzatish bolaning tabiiy xatti-harakatini aniqlasa, eksperiment sabab-oqibat munosabatlarini ochadi, suhbat esa bolaning ichki dunyosiga kirish imkonini beradi. Testlar va so'rovnomalar orqali esa bola qobiliyati, bilim darajasi va hissiy barqarorligi haqida aniq raqamli ma'lumotlar olinadi. Shuningdek, biografik va hujjatlarni tahlil qilish metodlari bola tarbiyasida oilaviy, ijtimoiy muhit ta'sirini ko'rsatadi.

Proyektiv metodlar esa bolaning yashirin hissiyotlarini, tashvish va istaklarini bilishga yordam beradi. Bugungi kunda zamonaviy psixologiyada bu metodlar integrativ (ya'ni birgalikda qo'llash) yondashuvi asosida amalga oshirilmoqda. Ya'ni, faqat bitta metodga tayanish emas, balki ularni bir-birini to'ldiruvchi tarzda ishlatish samaraliroq natija beradi. Bolalar psixologiyasi metodlarini puxta bilish — har bir pedagog va psixolog uchun zarurdir. Chunki bu metodlar yordamida bola ruhiyatini to'g'ri tushunish, uning ichki ehtiyojlari va qobiliyatlarini ochib berish, shuningdek, tarbiya va ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017
2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi T.: TDPU 2017

3. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010
4. Pedagogika. Umumiy pedagogika asoslari. Didaktika / o'quv qo'llanma N.I. Prokoviev, N.V. Mixalkovich. Minsk: TetraSystems, 2002 yil.
5. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T.va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013.

